

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK : 81.3

BADIIY DETALLAR NOANIQLIGINING AKTUALLASHUV JIHATIDAN DARAJALANISHI

Komilova Dilnoza Muhammad qizi

“Umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasi”

kafedrası o'qituvchisi, Farg'ona davlat universiteti

d.komilova0893@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal hususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e'tirof etish, so'z birikmalari, gap paradigmalari, konseptual jihatdan tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.

KALIT SO'ZLAR: badiiy detal, konsept, reprezentatsiya, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal, xarakter, badiiy matn, yashirin ma'no.

ОЦЕНКА НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ДЕТАЛЕЙ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ АКТУАЛИЗАЦИИ

АННОТАЦИЯ: В данной статье описываются теоретические вопросы, связанные с филологическим подходом, распознаванием, словосочетаниями, парадигмами предложений и концептуальным анализом.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: художественная деталь, постоянные, изобразительные, изобразительные детали; уточняющая деталь, характер, художественный текст.

RATING OF THE UNCERTAINTY OF ARTISTIC DETAILS IN TERMS OF ACTUALIZATION

ANNOTATION: In this article, the theoretical issues related to the philological approach, recognition, word combinations, sentence paradigms, and conceptual analysis are described.

KEYWORDS: artistic detail, constant, representational, descriptive detail; clarifying detail, character, implicit, artistic text, hidden meaning.

KIRISH. Matnda badiiy detalning yashirin holatda bo'lishi uni ifodalovchi lisoniy vositalar paradigmaticasi bilan bog'liqdir. Noaniqlikning aktuallashuvi esa sintagmatikada

sodir bo‘ladi. Badiiy matnning semantik jihatdan to‘yinganligi detallarni o‘rinli, matnga mos tanlab olinishidadir. Badiiy asarni ikki omil tashkil etadi. Ulardan biri matnning ichki omili ya’ni ifoda va mazmun birligi bo‘lsa, matndan tashqari qismni ifodalovchi elementlarga esa matnni yaratish va kitobxonning idrok etish holati, muallifning kommunikativ va pragmatik munosabati va boshqalar kiradi.⁴⁸⁵

[Брудный 1976]. Ushbu elementlar matndan tashqari ma’lumotni hosil qiladi, ularning yordamida badiiy detallarni sharhlash, ularga xos bo‘lgan ma’noni olish mumkin. Bunday ma’lumotlar o‘zining to‘liqligi va zichligiga ko‘ra xususiyatlanadi. Badiiy detallarni o‘zi ifodalagan ma’lumotni kitobxon tomonidan idrok etish darajasini hisobga olgan holda, shartli ravishda past daraja, o‘rta daraja, yuqori darajaga ajratish mumkin. Badiiy matnda ifodalangan mazmun va g‘oyaning aniq ma’nosini anglashda detallarning quyi darajasini ishtirok etadi. ko‘pincha voqealar, obyektlar, tasvirlar va stereotiplarning mavjudligi bunga yordam beradi. Bunda leksik birlikdagi doimiy assotsiatsiyalarga suyaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Muayyan kontekstda paydo bo‘lgan va doimiy foydalaniladigan leksik birliklar o‘zi ifodalagan leksik ma’no chegaralaridan tashqariga chiqadi va kitobxon ongida mustahkamlangan tasvirlarni amalga oshiradi. Stereotipik ma’lumotlar orqali yaratilgan assotsiatsiyalarga asoslangan bunday yashirin tarkib juda oson va adekvat tarzda tiklanadi. Xurshid Do‘stmuhammadning “Jimjitxonaga yo‘l” hikoyasida ikki obrazning jismoniy va ruhiy holati mahorat bilan ochib berilgan. Hikoyaning boshlanishi Dino Kortening poyezddan tushib, shifoxonaga kelganidan boshlanadi. Uning faqat harorati tushmaganligi ma’lum. Qanday kasallik bezovta qilayotganligini o‘zi bilmaydi. Yetti qavatdan iborat kasalxonaning shinamligi, palatalarning ozoda, saramjon sarishtaligi Dino Korteni ruhini ko‘tarib yuboradi. Muallif xarakterga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tavsif berishdan qochadi va kitobxonning o‘ziga qoldiradi. Shunga ko‘ra, bu uslub nazarda tutilgan tarkibga asoslanadi, muallif faqat bilvosita xarakterni tasvirlashda ishtirok etadi; u yolg‘iz obrazning ruhiy holatini detallar orqali asta-sekinlik bilan ko‘rsatib beradi. To‘liq tasvir nafaqat qahramonning xulq-atvori va odatlarining tavsifi, balki uning kvartirasining jihozlarini tavsiflovchi detallar bilan ham shakllanadi. Yettinchi qavatdagi palataga joylashgan Dino Korte: “*Derazaning ochiq tabaqasidan tashqarini kuzatadi: yuqoridan qaralsa, daraxtlarning quyuqligidan yer ko‘rinmas, ko‘m-ko‘k daraxtlar gullagan mitti gul yaproqchalaridan taralayotgan hushbo‘y hid dimoqni qitiqlaydi*”⁴⁸⁶. Yozuvchi yuqoridagi tasvirni berish orqali bemorning ko‘tarinki kayfiyatda ekanligini kitobxonga yetkazib beradi. Dino Kortega pastki qavatlarga tushib yurmasligi, ularda og‘ir bemorlar yotishi, ularning tinchini buzmasligi kerakligi aytiladi. Yozuvchi bu o‘rinda tasviriy detallardan foydalanadi va quyidagi tasvirni beradi: “*Dino Korte*

⁴⁸⁵ Брудный А.А. Подтекст и элементы внетекстовых знаковых структур / А.А. Брудный // Смысловое восприятие

речевого сообщения (в условиях массовой коммуникации).- М.: Наука, 1976. - С. 152-158.

⁴⁸⁶ Xurshid Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi: Hikoyalar.-Toshkent. “Sharq” 2006

pastki qavat derazalariga ko‘z yugurtirdi. Kunduzi bo‘lgani uchunmi bemorlar muolaja bilan band shekilli, derazalarda odam sharpasi kamdan–kam kuzatiladi. Faqat birinchi qavat derazalari taqa-taq berk, ustiga-ustak derazalar tashqaridan mayda sim to‘r bilan qoplangani uni ajablantirdi”. Tasvirdan ko‘rinadiki, pastki qavatlarda derazaning oldiga kelib qarashga ham qurbi yetmaydigan bemorlar turadi. Hikoyada ikkinchi qahramon Zohid Yaqin juda ham sog‘lomligi, bundan g‘ururlanishi tasvirlanadi. Voqealar rivojida esa u ham Dino Korte singari shifoxonaga boradi. Yozuvchi bu qahramonning jismoniy holatini palata tasviri orqali ketma–ketlikda berib boradi. Dastlab birinchi qavatdagi palatani tasvirlaydi. “U deraza tokchalarini, qo‘l yuvish xonasini ko‘zdan kechirdi karavotning yonginasida devorga o‘rnatilgan radioning qulog‘ini buradi”.

MUHOKAMA. Xona tasviri odatdagidek. Bemor o‘rnidan turishi, qo‘lini yuvishi yoki radioni qulog‘ini burashi mumkin. Tasvirdan sezish mumkinki, bu palataga og‘ir bo‘lmagan bemorlar joylashtiriladi. Zohid Yaqinni uchinchi qavatdagi palataga ko‘chirilganda, palata tasviri endilikda quyidagicha beriladi: “Karavotda yotgan joyida shundoqqina boshining yonida, devorga mahkamlangan radioni ko‘rsatib jilmaydi. Yaxshi ... radio balandda emas ekan, ...yotgan joyimdan o‘chirib–yoqaveraman”. Avvalgi palatada radioni yoqish uchun bemor o‘ridan turishi kerak edi. Zohid Yaqinning ahvoli oyog‘ida turolmaydigan darajada og‘irlashgan. Shu sababli devorga o‘rnatilgan radio ham yotgan holatda yoqish uchun mo‘ljallangan. Asar so‘ngida Dino Korte ahvoli keskin og‘irlashib, uning o‘limi yaqinlashib qolgan bir paytda yozuvchi quyidagicha tasvirni beradi: “Yuqori qavatlarda yotganida derazadan quyuq **daraxtlar shoxining uchi** ko‘rinayotgan edi, **so‘ng shoxlar** ko‘rindi... Mana endi **daraxtlarning g‘o‘daygan qari va g‘o‘dir tanasi qorayib** ko‘rinyapti”. Bu stereotipga yozuvchi chuqur ramziy ma‘no yuklagan. Dino Korte yuqori qavatlarda yotganida ko‘rinib turgan daraxt shoxlarining uchi kasallik hali hali tanani egallashga ulgurmagan ancha navqiron payti. Qalinroq shoxi esa kasallik belgilari tanani egallay boshlagani, eng pastki qavat palatasidan ko‘rinib turgan daraxtning g‘o‘daygan, qari va g‘o‘dir tanasi esa qahramon umrining poyoniga yetganiga, daraxt tanasining qorayib ko‘rinishi qahramonning ko‘zlari ko‘rmay qolishiga ham ishoradir. Obyektlar yoki hodisalar tomonidan yaratilgan assotsiatsiyalar mazmunni aniq idrok etish uchun muhim yordam bo‘lib xizmat qiladi. Xona jihozlariga berilgan barcha tafsilotlar uning oddiy kasalxonani ko‘rsatish uchun emas, balki asosiy xususiyatni – bemorning kasalligi va jismoniy holatini ta’kidlash uchun mo‘ljallangan. Xonadagi yagona bezak - bu faqat tashqaridagi tabiatni ko‘rsatib turgan oyna, lekin uning foydali maqsadi muallif tomonidan ta’kidlanmagan. Bunday zohidlik muhitini yaratgan odam to‘g‘ri turmush tarziga, tartibga moyil bo‘ladi. Muallifning mustaqil baho bermasdan, personajni tavsiflash, o‘quvchida xarakterga ma’lum munosabatni uyg‘otish istagi o‘quvchi tomonidan osongina tiklanadigan nazarda tutilgan ma’noga ega bo‘lgan detallarni bayon qilish orqali ifodalanadi. Stereotip deb hisoblangan obyektlar yoki hodisalar tomonidan yaratilgan assotsiatsiyalar tarkibni aniq idrok etish uchun muhim yordam bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu misolda bunday stereotiplar palatadagi qora va oq ranglar bo‘lib, ular ongda sovuqlik tuyg‘usini

uyg‘otadi. Palatadagi jihozlardan anglashilgan ma‘no o‘quvchi idrokining tog‘riligini tasdiqlaydi. Bemor har safar sog‘lig‘i yomonlashib boshqa palataga ko‘chadi, xona jihozlari ham bemorning jismoniy harakatlariga moslashtirilgan bo‘ladi. Berilgan kontekstdagi jihozlar xarakterga nisbatan keyingi munosabatni munosib tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasining asosiy g‘oyasi ota-onaga muhabbat, Vatanga sadoqat va diniy e‘tiqodni ulug‘lashdan iborat. Hikoya Saodat ayaning bomdod nomozini tugatib, Qur‘on tilovat qilishi bilan boshlanadi. Joynamoz detali Saodat ayaning Ollohga bo‘lgan e‘tiqodi haqida axborot beradi. Bu esa joynamoz orqali yozuvchining qahramon fe‘l-atvorini mohirlik bilan ifodalayotganidan darak beradi. Keyingi o‘rinlarda esa peyzaj orqali kuz manzarasining bayoni beriladi. Ariqda oqayotgan suvning tiniqligi haqidagi tasvir Saodat ayaning poklik bilan bosib o‘tgan umriga ishora qiladi. Shundan so‘ng yozuvchi portret tasvirini beradi. Bunda Saodat ayaning yoshligida juda chiroyli bo‘lgani, sochining uzunligi, bu unga husn bag‘ishlagani ta’kidlanadi. Agar yozuvchi joynamoz orqali ichki go‘zallikni ko‘rsatgan bo‘lsa, sochning uzunligi orqali tashqi go‘zallikka ishora qiladi. Mazkur ikki detal nolisoniy vosita sifatida qahramonning ruhiyati, dunyoqarashi, e‘tiqodi bilan bog‘liq jihatlarini ochib beradi va pragmatik til sifatida namoyon bo‘ladi. Yana bir nolisoniy vosita Saodat aya hovlisidagi tut detalidir. Tut daraxti oilaning ramzi, shoxlari esa o‘sha oila farzandlaridir. Tasvirlanishicha, tut daraxtining bir shoxi qurigan, uning uchida Saodat ayaning o‘g‘li Bo‘rixon yoshligida o‘ynagan varrak osilib turibdi. Varrakning dumi esa shamolda ilondek to‘lg‘onib, turadi. Tutning qurigan shoxi badiiy detall sifatida Bo‘rixon hayotining mazmuniga ishora qiladi. Bu mazmuniy qurilishni yozuvchi quyidagicha izohlaydi: *Bo‘rixon armiya xizmatiga ketganidan so‘ng uyiga qaytmadi. Xizmatni tugatgach, boshqa dindagi bir qizga oshiq bo‘lib, o‘sha dinni qabul qildi hamda o‘sha qizga uylandi. O‘ttiz yil davomida o‘z uyiga qaytmadi.* Mana shu lisoniy tasvir yozuvchi tomonidan tutning qurigan shoxi detalida nolisoniy tasvir orqali bayon qilinadi. Agar Saodat aya obrazi, uning turmush tarzi bilan bog‘liq syujet detallar orqali nolisoniy tasvirlangan bo‘lsa, Bo‘rixonning hayoti ham uning turmush tarzi bilan syujet ham nolisoniy vosita –badiiy detallarda ko‘zga tashlanadi. Masalan, boshqa dindagi qizga uylanib, u yerda cho‘chqa boqishi, samogon tayyorlashi, aroq ichishi bilan bog‘liq detallar Bo‘rixonga xos fe‘l-atvor va e‘tiqodning ramzlari sanaladi. Har ikki qahramon, ya‘ni ona va bola fe‘l-atvori, e‘tiqodi, hayotga munosabati zid syujetlar uyg‘unligi asosida rivojlantiriladi. Har ikki qahramonga taalluqli bo‘lgan detal – nolisoniy vositalar zid detallar sifatida umumiy syujetni to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Natijada har ikki qahramonga tegishli bo‘lgan zidlanuvchi xarakter ko‘zga tashlanadi. Saodat ayadagi e‘tiqod joynamoz, hojibadal detallari nolisoniy tasvirlansa, Bo‘rixon ko‘kragidagi but, chemonidagi sariq baxmalga o‘ralgan Injil uning boshqa dinga bo‘lgan e‘tiqod ramzlarini undagi mavjud detallar orqali anglaydi. Asardagi yana bir detal – yong‘oq daraxti. Bo‘rixon o‘ttiz yildan keyin o‘zi tug‘ilib o‘sgan hovlisiga qaytar ekan, xonadonidagi yong‘oq daraxti tagiga borib cho‘qinadi. Yozuvchi yong‘oq daraxtini bir shoxi quriganini yozadi, uni o‘z Vatanidan, dinidan ayrilgan qahramonning obrazini ifodalovchi ramz sifatida beradi. Umuman olganda, hikoyadagi

qahramonlarning fe‘l-atvori, ruhiyati, e‘tiqodi bilan bog‘liq stereotipik syujetlar, asosan, nolisoniy vosita – badiiy detallar yordamida ifodalanadi.

XULOSA. Bu misollarda aniqlovchi turga oid detallardan foydalanilgan bo‘lib, ularda ma‘lum implikativ salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Obyekt haqida ular olib yuradigan faktik ma‘lumotlar uning xususiyatlarining yashirin xarakteristikasi bilan birlashtiriladi. Shubhasiz, ularni faqat ozroq darajadagi yashirin semani (amalda aniqlikka juda yaqin) tasniflash mumkin, chunki nazarda tutilgan ma‘no osongina tiklanadi. Adekvat idrok yashirin ma‘lumotlarning ma‘nosi to‘liq elementar bilimlarga asoslanganligi, stereotipik vaziyatlar ifodasiga ko‘ra assotsiatsiyalar paydo bo‘lishi va hayotiy tajriba ma‘noni ochish uchun muhim yordam bo‘lib xizmat qilishi tufayli yuzaga keladi. Matn bilan bog‘liq tafsilotlar subtekst yaratish uchun muhim bo‘ladi, chunki ular yashirin ma‘lumotni retrospektiv tarzda uzatadi. Said Ahmad “Qorako‘z Majnun” hikoyasida ikkinchi darajali qahramonlarni tavsiflashda ishtirok etuvchi ozroq yashiringan mazmunli detallar bosh qahramonni munosib baholash uchun ma‘lumot to‘playdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Брудный А. А. Подтекст и элементы внетекстовых знаковых структур / А.А. Брудный // Смысловое восприятие речевого сообщения (в условиях массовой коммуникации).- М.: Наука, 1976. - С. 152-158.

2. Xurshid Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi: Hikoyalar.—Toshkent. “Sharq” 2006.

3. G‘aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”) //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – T. 18.